

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ART TEXNOLOGIYA VA
KREATIVLIKDAN FOYDALANISH CHET EL MAMLAKATLARI VA
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMI MIQYOSIDA**

Tog'ayeva Sevinch Komiljon qizi

ShDPI Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini art texnologiyasi yordamida darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari bayon etilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim sohasidagi chet el tajribalari va O'zbekiston ta'lim tizimidagi farqli jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: art texnologiya, kreativlik, bilim, sifatli ta'lim, ijodiy fikrlash, kreativ fikrlash, o'qitish metodikasi, izoterapiya, pedagogik texnologiya, tasviriy san'at, art-terapiya, ertak terapiya, park terapiya, estetik did.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Barchamizga ma'lumki, har qanday soha bo'lmasin, uning rivoji uchun avvalo, ta'lim tizimini rivojlantirish darkor. Har bir sohani o'zining yetuk va malakali kadrlarigina rivojlantira oladi desam mubolag'a bo'lmaydi. Darhaqiqat, shifokorlar deysizmi, o'qituvchilarmi yo muhandislarmi, har bir kasbning mutaxassisi bo'lib yetishish uchun sifatli ta'lim muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda zamonaviy kasblar ya'ni dasturchi, loyiha boshqaruvchisi, grafik dizayneri kabi kasblarda ham ta'limning o'rni beqiyos. XXI asr - Texnologiyalar asrida barcha mamlakatlar o'zining yangi g'oyalari asosida ishlab chiqarayotgan texnologiyalari bilan peshqadamlik qilayotgan bir vaqtda O'zbekiston ham o'zining rivojlanish strategiyalarini aniq belgilab oldi va kelajakdagi maqsadlarga yanada tezroq erishish uchun ta'lim sifatini oshirishga o'z e'tiborini qaratdi. Kelajak avlodni o'zi istagan kasbni egallashi va o'zini qiziqtirgan soha vakili bo'lib kamol topishida ta'lim asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, bola yoshligidan o'z qiziqishlarini anglab yetgan holda kelajagini ko'ra olishi uchun boshlang'ich ta'lim to'g'ri tashkil etilishi lozim. Bu borada Yevropa



mamlakatlari va aynan Finlandiya ta'lim tizimi namuna qilib ko'rsatilmoqda. Bo'layotgan o'zgarishlarga qaramay O'zbekiston ta'lim tizimidagi oqsoqliklar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etib, sifatli va zamonaviy ta'lim tizimiga o'tish vaqti keldi, nazarimda. Shu o'rinda SH.Mirziyoyevning "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi." degan fikrlari ham ta'lim tizimini yangidan isloh qilish vaqti kelganligini anglatadi.

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, fikrini erkin namoyon eta olish qobiliyatini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish, bolaning faqat o'zi istagan kasbiga yo'naltirish vazifalari qo'yiladi. O'zbekiston ta'lim va tarbiyaga e'tibor qaratayotgan davrda Yevropa mamlakatlari yangi ilmiy izlanishlar, bolaning hayolotini yuzaga chiqarish, ichki dunyosini tashqi dunyo bilan bog'lash, kreativ fikrlashga o'rgatish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabi jarayonlar bilan band. Ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar allaqachon zamonaviy pedagogik texnologiya (grekcha "texnos"- san'at, mahorat "logos"- ta'limot, o'rganish)lardan foydalanishni boshlab yuborgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning predmeti o'quv jarayonining o'zi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llashda kreativlikdan foydalanishning o'rni beqiyos.

Kreativlik (inglizcha "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarini ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Bolada kreativlik qobiliyatini yoshlikdan shakllantirish pedagogning mahoratiga bog'liq. Ya'ni pedagogning o'zi kreativ fikrlasa, har bir bolaning fikrini individual tinglasa, bolani qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etsa, kreativlik ham o'z-o'zidan shakllanib boradi. Shu o'rinda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash, ularni nazardan chetda qoldirmaslik ham muhim sanaladi.

Bilamizki, hammani o'zining qiziqqan, o'zini kayfiyatini ko'taruvchi, unga o'zgacha ruh baxsh etuvchi mashg'uloti bo'lib, inson ana shu mashg'ulotdan foydalanganda barcha muammolarini unutadi. Ko'pchilik san'at sohasidagi mashg'ulotlar bilan shug'ullanganda o'zini yaxshi his qiladi. Bolalarda ham aynan shunday. bu o'rinda art texnologiyadan foydalanish yaxshi samara beradi. Art texnologiya – psixokorreksiya usuli. Art texnologiyaning tarkibiy qismi sifatida art-



terapiyani misol qilishimiz mumkin. Art-terapiya – tasviriy san’at orqali psixoterapiya. Art-terapiyaning o’zi ham bir qancha tarkibiy qismlardan iborat:

Musiqqa terapiya – tovushlar va musiqa orqali psixoterapiya.

Qo’g’richoq terapiya – qo’g’irchoqlar orqali psixoterapiya.

Park terapiya – istirohat va madaniyat bog’lari kabi dam olish majmualarining inson organizmiga shifobaxsh va reaksion ta’siridan foydalanish orqali psixoterapiya.

Ertak terapiyasi – ertaklar tuzish, aytib berish, drammatizatsiya qilish orqali psixoterapiya. Ertak bolaning qo’rquvini samarali yengishga o’rgatadi.

Bu usullar nafaqat xulqi og’ir bolalar uchun, balki barcha o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishini oshirish uchun xizmat qiladi. Terapiyaning juda ko’p turlari mavjud bo’lib, yuqorida aynan boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun mos bo’lganlari keltirib o’tildi va ular quyidagi vaziyatlar uchun foydali :

O’zini yolg’iz his qilish;

Asabiylik va kayfiyatni tez o’zgarishi;

O’smirlik davridagi o’zgarishlar;

Depressiyaga moyillik;

Yashirin qo’rquvlar;

Past samootsenka(o’ziga bo’lgan past baho).

Hozirgi kunda kreativ fikrlashni oshirish va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish uchun art-terapiyadan keng ko’lamda foydalanilmoqda. Jumladan, art-terapiya his-tuyg’ularni erkin ifoda etishga, rasm chizish orqali hayoloti bilan yuzlashishga undaydi desam adashmagan bo’laman. Shu bois psixologlar insonlar haqida ma’lumotga ega bo’lish, ularning kayfiyatini, dunyoqarashini bilish uchun ham rasm chizdirishdan ya’ni art-terapiyadan foydalanadi.

O’zbekistondagi maktablarda ham aynan boshlang’ich sinflar uchun art-terapiyadan foydalanishadi. Faqat bu Yevropa mamlakatlaridan farq qiladi. ya’ni Yevropa maktablarida asosan boshlang’ich sinfdan boshlab rangli bo’yoqlar bilan ishlanadi. Bu esa o’quvchilarning ijodiy ishlarini chegarasiz holda ifoda etish mumkinligiga zamin yaratadi. O’zbekistondagi boshlang’ich sinf rasm darslarida asosan rangli qalamlardan foydalaniladi. Rangli bo’yoqlardan foydalanib rasm chizish qalamlarga qaraganda qiyinroq bo’lib, qalamlarda o’quvchilar ehtiyotkorlikni unutmagan holda ijod qiladi, ya’ni qalamda ishlangan ijodiy ishda chegara mavjud bo’lib, estetik jihatdan kamchiliklar bo’yoq bilan ishlangan ijodiy ishga nisbatan ancha kam bo’ladi. Shu bois o’quvchilar aniq bir suratni ifodalashga



harakat qiladilar va hayotidagi suratlarni nazardan chetda qoldiradilar. Aslida bo'yoqlar bilan ishlash uchun har bir bola o'zini erkin tutgan holda bo'yoqlar yordamida o'z ijodiy ishlariga o'zgacha uyg'unlikdagi rang-baranglikni aks ettirishi mumkin va ular bo'yoqlar bilan ishlash orqali estetik didga ega bo'ladilar.

Yuqoridagi usullardan foydalanish nafaqat rivojlanishda muammosi bor bolalarni, balki sog'lom bolalarni ham har tomonlama rivojlantirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimini Yevropa mamlakatlari va Finlandiya ta'lim tizimidan andaza olgan holda o'zgartirar ekanmiz, buning uchun eng samarali va maqbul usullardan foydalangan holda ta'limni tashkil etish maqsadga muvofiq. Zero, kelajak yoshlar qo'lida ekan, barpo etilajak yorqin kelajak uchun biz ham yoshlarni to'g'ri yo'naltirish orqali oz bo'lsada o'z hissamizni qo'shsak nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" Toshkent-2017
2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova va b. "Umumiy pedagogika" T.: "Fan va texnologiya" Toshkent- 2018
3. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent-2021.